



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

DEMOGRAFIK HOLATI

*2024-yil
yanvar-sentabr*



SURXONDARYO VILOYATINING DOIMIY AHOLISI

2024-yil 1-oktabr holatiga, dastlabki ma'lumotlar

Surxondaryo viloyatida 2024-yil 1-oktabr holatiga doimiy aholi soni **2928,0** ming kishini tashkil etib, yil boshiga nisbatan **50,9** ming kishiga yoki **1,8 %** ga ko'paydi. Jumladan, shahar aholisi soni **1058,4** ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi **36,1 %**), qishloq aholisi soni **1869,6** ming kishi (**63,9 %**) ni tashkil etdi.

Viloyat ma'muriy-hududiy jihatdan 1 ta viloyat bo'ysunuvidagi shahar va 14 ta tumanga bo'lingan, aholi zichligi 1 kv. km ga 145,7 kishiga to'g'ri keladi.

Ma'muriy markazi – Termiz shahri bo'lib, aholisi 206,1 ming kishi.

Doimiy aholi soni

2928,0

ming kishi

Tabiiy o'sish

+53,1

ming kishi

Doimiy aholining yashash joyi bo'yicha taqsimlanishi

Shahar joylarda



1058,4 ming kishi

Qishloq joylarda



1869,7 ming kishi

Doimiy aholi sonining taqsimlanishi

2024-yil 1-oktabr holatiga

Erkaklar


50,6 %



1482,0 ming kishi

Ayollar

49,4 %



1446,0 ming kishi


Hududlar kesimida doimiy aholi sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi

1-oktabr holatiga, ming kishi

	2023-yil	2024-yil	O'sish sur'ati, % da
Surxondaryo viloyati	2 858,3	2 928,0	102,4
Termiz sh.	200,1	206,1	103,0
tumanlar:			
Oltinsoy	191,3	196,2	102,6
Angor	142,9	146,2	102,3
Bandixon	82,4	84,7	102,8
Boysun	123,9	126,4	102,0
Muzrabot	152,8	156,0	102,1
Denov	417,5	427,8	102,5
Jarqo'rg'on	236,7	242,5	102,5
Qumqo'rg'on	253,8	260,1	102,5
Qiziriq	123,3	126,1	102,3
Sariosiyo	226,3	231,4	102,3
Termiz	84,1	86,5	102,9
Uzun	186,6	191,3	102,5
Sherobod	209,6	213,9	102,1
Sho'rchi	227,0	232,8	102,6

Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi

1-oktabr holatiga, ming kishi



Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2024-yil 1-oktabr holatiga, eng ko'p aholi soni Denov tumanida 427,8 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (14,6 %) va Qumqo'rg'on tumanida 260,1 ming kishini (8,9 %), Jarqo'rg'on tumanida 242,5 ming kishi (8,3 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 84,7 ming kishini (2,9 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati yil boshiga nisbatan soni Denov tumanida 7,6 ming kishi (1,8 %) va Qumqo'rg'on tumanida 4,6 ming kishini (1,8 %), Jarqo'rg'on tumanida 4,1 ming kishi (1,7 %) va aksincha eng kam aholi soni Bandixon tumanida 1,8 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Surxondaryo viloyati bo'yicha asosiy demografik ko'rsatkichlar 2024-yil yanvar-sentabr, dastlabki ma'lumotlar



Viloyat bo'yicha aholining tabiiy harakati (yanvar-sentabr)

	<i>kishi</i>			<i>1000 aholiga nisbatan</i>	
	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>	<i>o'sish, kamayish, +,-</i>	<i>2023-yil</i>	<i>2024-yil</i>
Tug'ilganlar	65217	62928	-2289	30,8	29,0
O'lganlar	10553	9783	-770	5,0	4,5
Nikohlar	15288	14167	-1121	7,2	6,5
Ajralishlar	2213	2176	-37	1,0	1,0
Ko'chib kelganlar	7817	8534	717	3,7	3,9
Ko'chib ketganlar	10685	10764	79	5,0	5,0

Tug'ilish. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 62,9 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (bu yerda va keyinchalik tirik tug'ilganlar inobatga olinadi), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 29,0 promilleni tashkil etdi hamda 2023-yilning mos davriga nisbatan -1,8 promillega kamayganligi kuzatildi (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 30,8 promille bo'lgan).

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urish, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyor qisqarishi) biri mavjud bo'lsa bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yi 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.




SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

**Hududlar kesimida tug‘ilganlar sonining
o‘tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi,
(yanvar-sentabr holatiga, kishi)**

	2023-yil	2024-yil*	O‘sinh sur‘ati %
Surxondaryo viloyati	65217	62928	-2289
Termiz sh.	4031	3927	-104
tumanlar:			
Olinsoy	4333	4371	38
Angor	3138	2927	-211
Bandixon	2106	2063	-43
Boysun	2662	2593	-69
Muzrabot	3282	3183	-99
Denov	9964	9558	-406
Jarqo‘rg‘on	5867	5273	-594
Qumqo‘rg‘on	5893	5773	-120
Qiziriq	2818	2821	3
Sariosiyo	4792	4616	-176
Termiz	2116	2052	-64
Uzun	4248	4230	-18
Sherobod	4656	4275	-381
Sho‘rchi	5311	5266	-45


Hududlar kesimida tug‘ilishlar soni va tug‘ilish koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-sentabr)



Tabiiy o‘sinh. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida aholining tabiiy o‘shishi 53,1 ming kishini (2023-yilning yanvar-sentabr oylarida 54,7 ming kishi) tashkil etdi.

Asosiy o'lim sabablari bo'yicha 2024-yil yanvar-sentabr

Jamiga nisbatan ulushi,
% da



Vafot etganlar. 2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 9,7 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,5 promilleni tashkil etdi, 2023-yilning mos davriga 5,0 promille bo'lgan.

2024-yilning yanvar-sentabr oylarida 9,7 ming nafar o'lim qayd etilgan bo'lib, vafot etganlarning 58,2 % i qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 7,0 % i xafvli o'simtalardan, 4,8 % i baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,1 % i ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 9,6 % i nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 0,8% i yuqumli va parazitlar kasalliklardan hamda 15,5 % i boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Hududlar kesimida vafot etganlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(yanvar-sentabr holatiga)

Hududlar	2023-yil	2024-yil*	O'sish sur'ati +:-
Surxondaryo viloyati	10553	9783	-770
Termiz sh.	819	719	-100
tumanlar:			
Oltinsoy	714	615	-99
Angor	606	511	-95
Bandixon	354	238	-116
Boysun	481	464	-17
Muzrabot	530	483	-47
Denov	1452	1422	-30
Jarqo'rg'on	910	889	-21
Qumqo'rg'on	856	847	-9
Qiziriq	540	400	-140
Sariosiyo	615	700	85
Termiz	320	399	79
Uzun	639	570	-69
Sherobod	849	804	-45
Sho'rchi	868	722	-146


**Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar sonining
o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi
(yanvar-sentabr)**



Hududlar	2023-yil	2024-yil*	O'sish sur'ati +:-
Surxondaryo viloyati	15288	14167	-1121
Termiz sh.	952	887	-65
tumanlar:			
Oltinsoy	1032	912	-120
Angor	754	673	-81
Bandixon	464	434	-30
Boysun	620	570	-50
Muzrabot	767	731	-36
Denov	2289	2126	-163
Jarqo'rg'on	1444	1322	-122
Qumqo'rg'on	1397	1297	-100
Qiziriq	619	590	-29
Sariosiyo	1148	1034	-114
Termiz	542	497	-45
Uzun	916	857	-59
Sherobod	1000	1055	55
Sho'rchi	1344	1182	-162



Hududlar bo'yicha nikoh tuzganlar soni va nikoh koeffitsiyenti kishi (2024-yil yanvar-sentabr)




Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar sonining o'tgan yilning shu davriga nisbatan taqqoslanishi, kishi (yanvar-sentabr)

Hududlar	2023-yil	2024-yil*	O'sish sur'ati +/-
Surxondaryo viloyati	2213	2176	-37
Termiz sh.	251	202	-49
tumanlar:			
Oltinsoy	129	150	21
Angor	117	108	-9
Bandixon	61	59	-2
Boysun	94	92	-2
Muzrabot	132	119	-13
Denov	340	342	2
Jarqo'rg'on	168	163	-5
Qumqo'rg'on	157	196	39
Qiziriq	80	76	-4
Sariosiyo	172	166	-6
Termiz	83	90	7
Uzun	134	124	-10
Sherobod	159	155	-4
Sho'rchi	136	134	-2

Ajrim koeffitsientida aksariyat tumanlarda o'tgan yilga nisbatan kamayish kuzatildi. O'tgan yilga nisbatan kamayish Termiz shahri (0,4 promillega), Oltinsoy tumani (0,1 promillega), Jarqo'rg'on tumani (0,1 promillega), Qiziriq tumani (0,1 promillega) kuzatildi.

Hududlar bo'yicha nikohdan ajralishlar soni va koeffitsiyenti (2024-yil yanvar-sentabr kishi, promille)



Aholi migratsiyasi (kishi)

2024-yil yanvar-sentabr oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 8,5 ming kishini, ko'chib ketganlar soni esa 10,8 ming kishini tashkil etdi. Migratsiya saldosini minus -1,1 ming kishi bo'lib, 2023-yilning mos davrida minus -1,3 ming kishi bo'lgan.

2023-yil
yanvar-sentabr



2024-yil
yanvar-sentabr



 **Ko'chib kelganlar**  **Ko'chib ketganlar**  **Migratsiya saldosini**



Hududlar kesimida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni (2024-yil yanvar-sentabr uchun, kishi)

Hududlar	Ko‘chib kelganlar soni	Ko‘chib ketganlar soni	Migratsiya saldosı
Surxondaryo viloyati	8534	10764	-2 230
Termiz sh.	2833	1563	1 270
<i>tumanlar:</i>			
Oltinsoy	223	413	-190
Angor	523	571	-48
Bandixon	244	312	-68
Boysun	244	607	-363
Muzrabot	382	765	-383
Denov	566	1048	-482
Jarqo‘rg‘on	524	794	-270
Qumqo‘rg‘on	467	764	-297
Qiziriq	284	572	-288
Sariosiyo	145	629	-484
Termiz	1009	795	214
Uzun	300	505	-205
Sherobod	418	767	-349
Sho‘rchi	372	659	-287

Demografik ko'rsatkichlarga izohlar

Doimiy aholi – ro'yxatdan o'tkazilayotgan vaqtda muayyan aholi punkti yoki hududda doimiy istiqomat qilayotgan aholidan iborat bo'lib, bunga ushbu hududda doimiy ro'yxatda turib, lekin vaqtincha yashamaydigan aholi ham kiritiladi.

Shahar aholisi – shahar hududlarida, ya'ni me'yoriy hujjatlar bilan shaharlar, shaharchalar sifatida belgilangan aholi punktlarida istiqomat qiluvchi aholi.

Qishloq aholisi – shaharlar va shaharchalar toifasiga kiritilmagan hududlarda – qishloq joylarda (ovullar, qishloqlar va boshqalar) istiqomat qiluvchi aholi.

Doimiy aholi sonini baholash – oxirgi aholini ro'yxatga olish ma'lumotlari asosida hisoblanib, unga har yili tug'ilganlar va muayyan hududga ko'chib kelganlar soni qo'shib, o'lganlar va muayyan hududdan ko'chib ketganlar soni ayriladi.

Tug'ilish – tug'ilish jarayonlarining sodir bo'lishi va boshqa xususiyatlarini tavsiflovchi ko'rsatkich.

1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti – hisobot yilida jami tug'ilganlar (tirik) sonini hisobot davridagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti – hisobot yilida jami o'lganlar sonini hisobot yilidagi doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

O'lim sabablari – o'limga yoki uning sodir bo'lishiga ta'sir etgan kasalliklar, patologik holatlar va jarohatlar, shuningdek, o'lim bilan yakun topgan jarohatga sabab bo'lgan baxtsiz hodisa va zo'ravonlik holatlari.

Nikoh – erkak va ayol o'rtasidagi, ularning bir-birlariga va farzandlariga nisbatan huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan o'zaro munosabatlari shakli. Er va xotin o'rtasidagi yuridik munosabatlar fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish (FHDYO) organlarida nikohlarini ro'yxatdan o'tkazish natijasida o'rnatiladi.

1000 aholiga nisbatan nikohlar koeffitsiyenti – hisobot yilida tuzilgan nikohlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000 ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.

Nikohdan ajralish (nikohni bekor qilish) – er-xotinlarning hayoti davomida, tomonlar uchun qayta nikoh huquqini beruvchi, nikohlarning to'liq yuridik to'xtatilishi, nikoh FHDYO yoki sud organlarida ajralishni ro'yxatdan o'tkazilganidan so'ng bekor qilingan hisoblanadi.

1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti – hisobot yilida nikohdan ajralishlar sonini doimiy aholining o'rtacha soniga bo'lib, 1000ga ko'paytirish orqali hisoblanadi.



SURXONDARYO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Ko‘chib kelganlar soni – ko‘chib kelganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib kelganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib kelish.

Ko‘chib ketganlar soni – ko‘chib ketganlarning absolyut miqdori, ya’ni muayyan hududga uning tashqarisidan ko‘chib ketganlardan iborat. Ichki ishlar organlari tomonidan aholini yashash joyi bo‘yicha ro‘yxatga olishda tuziladigan statistik hisobga olish so‘rovnomalarini qayta ishlash natijasida ko‘chib ketish.

Aholining migratsion o‘sishi (farqi) – hisobot davrida ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar soni o‘rtasidagi farqning absolyut miqdori.

Surxondaryo viloyati statistika boshqarmasi
Demografiya mehnat va gender statistikasi bo‘limi
Tel: (76) 225-65-60